

MAHALLIY BYUDJETNI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING TUTGAN O'RNI.

Maribjonov Botirjon Ikromjonovich

Andijon davlat texnika instituti, "Buxgalteriya hisobi va menejment"
kafedrası assistenti.

Chirmashev Abdujalil Maxammadibroxim o'g'li

Andijon davlat texnika instituti, Muhandislik iqtisodiyoti va
boshqaruv fakulteti, Moliya va moliyaviy texnologiyalar
yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada, davlat moliya tizimining asosiy bo'g'inlaridan hisoblangan mahalliy byudjetlarni shakllantirishda hududiy davlat boshqaruv hokimiyati organlarining ahamiyati, bunda asosan mahalliy byudjet daromadlarini oshirish va ularni rivojlantirish asnosida yuqori byudjetga qaramligini hamda mahalliy byudjetlarning boqimandalik kayfiyatini kamaytirishdan iborat. Bu bilan mahalliy byudjetlarning o'z manbalari hisobiga byudjet xarajatlari va daromadlarini o'zaro balanslashtirishda moliyaviy omillarni amalga oshirish yuzasidan tegishli takliflar berilgan.

Kalit so'zlar. Moliya tizimi, mahalliy byudjet, byudjet xarajati, byudjet daromadi, byudjet transferti, dotatsiya, subvensiya, byudjet ssudasi.

РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ В ФОРМИРОВАНИИ МЕСТНОГО БЮДЖЕТА

Марибжонов Ботиржон Икромжонович

Андижанский государственный технический институт,
ассистент кафедры «Бухгалтерский учет и менеджмент».

Чирмашев Абдужалил Махаммадиброхим угли

Андижанский государственный технический институт,
факультет инженерной экономики и управления,

студент 1-курса направления «Финансы и финансовые технологии».

Аннотация. В статье рассматривается значение территориальных органов государственной власти в формировании местных бюджетов, которые являются одним из ключевых звеньев государственной финансовой системы. Основное внимание уделено вопросам увеличения доходов местных бюджетов, их развития, снижению зависимости от вышестоящего бюджета и уменьшению иждивенческих настроений местных бюджетов. На основе проведенного анализа представлены соответствующие предложения по обеспечению баланса между доходами и расходами местных бюджетов за счет собственных источников и реализации финансовых механизмов.

Ключевые слова: финансовая система, местный бюджет, бюджетные расходы, бюджетные доходы, бюджетный трансферт, дотация, субвенция, бюджетная ссуда.

THE ROLE OF STATE AUTHORITIES IN THE FORMATION OF THE LOCAL BUDGET

Maribjonov Botirjon Ikromjonovich

Andijan Institute of Engineering and Technology,

Assistant of the Department of “Accounting and Management”.

Chirmashev Abduljalil Makhammadibrohim ogli

Andijan Institute of Engineering and Technology,

Faculty of Engineering Economics and Management,

1st-year student of the “Finance and Financial Technologies” program.

Annotation. The article discusses the significance of territorial public authorities in the formation of local budgets, which are considered one of the main components of the public finance system. The focus is primarily on increasing local budget revenues, promoting their development, reducing dependence on higher-level budgets, and

minimizing the tendency toward budgetary dependency. Based on the analysis, relevant proposals are provided to ensure a balance between local budget revenues and expenditures through their own financial resources and the implementation of financial mechanisms.

Keywords: financial system, local budget, budget expenditure, budget revenue, budget transfer, subsidy, subvention, budget loan.

Kirish.

Ma'lumki, davlatimizning moliyaviy-iqtisodiy siyosatida katta islohotlar olib borilishi natijasida davlatning moliya tizimi ham tobora rivojlanib, yangicha dunyo qarash bilan shakllanib bormoqda. Moliya tizimining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan hududlardagi mahalliy byudjetlar ham mamlakat ichida olib borilayotgan moliyaviy-iqtisodiy islohotlarning samarali olib borilishida va aholi farovonligini oshirishning moliyaviy tayanchi bo'lganligi sababli, mahalliy byudjetlar daromadlarini takomillashtirish va ularni barqarorlashtirish, yuqori byudjetga qaramligini kamaytirish hamda mahalliy byudjetlarni o'z manbalari yordamida balanslashtirishga erishish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu vazifalarni hisobga olib, mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida soliqlarning rolini o'rganib, tegishli taklif va mulohazalar taqdim qilish maqsadga muvofiqdir.

Maqolaning bugungi kundagi dolzarbligi, asosan, quyidagilar bilan izohlanishi mumkin;

- O'zbekiston Respublikasida turli sohalaridagi islohotlar o'tkazilayotgan bir paytda mahalliy byudjetlar mas'uliyatini oshirish, ularning daromad manbasini mustahkamlash va undan moliyalashtirilayotgan tarmoqlarni xalqaro andozalarga muvofiq keladigan tarzda rivojlantirish hamda mahalliy byudjetni samarali shakllantirishda mahalliy hokimiyat organlarini vakolatlarini kengaytirish va takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Davlat byudjeti daromadlari manbalari hozirgi kunda mahalliy byudjet daromadlari manbalari sifatida ham asosiy o‘rin egallaganligi oqibatida mahalliy hokimiyat organlarining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi vakolatlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi bilan birga mahalliy hokimiyatlarning boqimandalik kayfiyatiga tushib qolishi va bu muammoni hal qilish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Maqolaning asosiy maqsadi Davlat byudjeti tarkibidagi mahalliy byudjetlarni o‘rni va mustaqilligini yanada oshirishda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan mahalliy byudjet daromad manbalarini barqarorligini ta’minlash va umumdavlat soliqlari tarkibida ko‘p qismini mahalliy byudjetlar daromadlar manbasiga aylantirish masalasi yuzasidan amaliy jihatdan o‘rganib chiqish va ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berishdir.

Bugungi kunda, amalga oshirilayotgan islohotlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining birinchi darajali xarajatlarni va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish borasida javobgarligini oshirishni, manbasi aniq bo‘lmagan tadbirlarni amalga oshirmaslikni hamda byudjet intizomini yanada qat’iylashtirishni taqozo etadi. Davlat moliyasini shakllantirish jarayonidagi muammolardan biri bu – mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va ularning barqarorligini ta’minlash bo‘lib, bu borada iqtisodchi olimlar mahalliy byudjet moliyaviy barqarorligini ta’minlashda soliqlarning ahamiyatini oshirishga bog‘liq ekanligini e’tirof etishgan.

Mavzuga oid adabiyotlar taxlili.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlari tomonidan davlat byudjetining hududlardagi mahalliy byudjetlarini shakllantirishda davlat soliqlarining o‘rni va ahamiyatini oshirish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib borishgan.

Jumladan; A.Mamanazarovning tadqiqot ishi mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish[7], H.Qobulov hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish[8], A. Burxanov va X.Qurbonovlar mahalliy byudjetlar daromadlarini ko‘paytirish va ularning barqarorligini ta’minlash

chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqib amalda qo'llash orqali ushbu masalaga tizimli yondashish lozimligini qayd etganlar[9].

Iqtisodchi olimlarimizdan biri N.Xaydarovning fikriga qaraydigan bo'lsak, mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini ko'paytirish va viloyatlarda yangi ish o'rinlarini yaratish uchun xorijiy investorlarni jalb etishni rag'batlantirish zarur. Buning uchun mamlakat bo'yicha xorijiy investorlar qanday turdagi tadbirkorlik va tijorat faoliyati bilan shug'ullana olmaydigan soha va tarmoqlar ro'yxati ishlab chiqilib, qolgan barcha soha va tarmoqlarga yashil yo'l borligi ko'rsatilish lozim[10].

MDX davlatlari iqtisodchi olimlaridan rus olimi Yu.Tumanskayaning fikricha mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini kuchaytirish va mahalliy ahamiyatga molik muammolarni hal etish samaradorligini oshirish zarurati mahalliy byudjetlarga daromadlarni shakllantirish tizimini ham byudjetni boshqarish nuqtaiy nazaridan, ham hududiy daromadlar bazasini baholashning ishonchliligi nuqtaiy nazaridan takomillashtirishni taklif etadi[11].

I. Shvesova va T. Naydenovalarning fikrlariga qaraganda mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy asosini mahalliy byudjetlar tashkil etishini va mahalliy byudjetlarning daromadlari soliqlar va soliqsiz daromad turlari, shuningdek, qaytarilmaydigan daromadlar hisobidan shakllanishini e'tirof etgan[12].

Xorij olimlaridan E. Gorinaning fikricha moliyaviy barqarorlik – bu mahalliy hokimiyatning aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha o'z majburiyatlarini doimiy ravishda bajarishi, mahalliy byudjetning qoniqarli moliyaviy holatini qisqa va uzoq muddatda ta'minlash qobiliyatidir[13]. Muallifning fikriga ko'ra, mahalliy davlat hokimiyati organlari byudjetlarining xarajatlar qismini o'z daromadlari hisobidan bajarilishini ta'minlash qobiliyati mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini saqlashning asosiy shartidir deb aytib o'tgan.

Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlar tomonidan ilgari surilgan fikr va mulohazalarda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va barqarorligini ta'minlashning amaldagi holati tadqiq etilgan. Fikrimizcha, bugungi kunda mahalliy byudjet daromadlarining asosiy manbai bo'lgan mahalliy soliqlar mahalliy byudjetlar

daromadlarini to'liq shakllantira olmaydi. Shu o'rinda respublika soliqlaridan ajratmalar hamda yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga berilayotgan moliyaviy yordamlar ajratish mexanizmini ham qaytadan o'rganib chiqqan holda tegishli tartibda tadqiqot ishlarini amalga oshirish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Davlat byudjetining mahalliy byudjetlarini shakllantirish va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, asosan mahalliy byudjetlar daromadlarining shakllanish mexanizmi, ularni tarkibi va ulushini tahlil qilish, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish va undan samarli foydalanish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotda qo'llash bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Davlat byudjeti intizomini yanada mustahkamlash, soliq siyosati va davlat byudjeti tizimining shaffofligini oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet daromadlari prognoz ko'rsatkichlarini bajarilishida manfaatdorligini kuchaytirish maqsadida quyidagilar belgilanadi:

soliq-byudjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi «natijaga yo'naltirilgan byudjet» tizimini joriy etish;

makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha institutsional salohiyatni va byudjet jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish;

byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;

fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;

byudjet ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash;

byudjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish[6].

Yuqorida qayd etilgan vazifalardan kelib chiqqan holda mahalliy davlat hokimiyati organlarining soliqlar va yig'imlar bo'yicha vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar olib borish respublikamiz soliq tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishi qilib belgilanishi lozim. Bu bir tomondan mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy byudjet daromadlar bazasini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini yanada kengaytirish imkonini beradi. Bu esa mahalliy byudjetlar daromadlarini barqarorligini tobora oshirib boradi.

Tahlil va natijalar.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet masalasi juda muhim va murakkab masala bo'lib hisoblanadi. Bunda har bir ma'muriy hududlarning rivojlanishi, u yerda yashovchi aholining turmush sharoiti, kam ta'minlangan oila va shaxslarni yetarli darajada ijtimoiy himoya qilish, ma'muriy hududlardagi davlat hokimiyati organlarining moliyaviy masalalarini to'g'ri hal qila bilishga bog'liqdir. Bunda mahalliy byudjetlarga tushadigan soliq va yig'imlarning turi, miqdorini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi.

Soliq tizimini takomillashtirishda davlat hokimiyati organlarining soliqlar va yig'imlar bo'yicha vakolatlarini yanada aniqlashtirish va bunda mahalliy davlat hokimiyati organlarining bu boradagi vakolatlarini yanada oshirishda muhim yo'nalish qilib belgilanishi lozim. Davlat byudjeti tarkibida ma'muriy hududlarning mahalliy byudjetlari daromadlarini mustahkamlash va ularning xarajatlarini barqarorlashtirish hamda ularning daromad bazalarini yanada kengaytirib borish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Avvalo, tahlil va tadqiqot jarayonlarini olib borishda davlat byudjeti daromadlari tarkibi to'g'risida tushuncha va shu tarkibdagi soliq va yig'imlardan bir moliya yili davrida qancha mablag' davlat byudjetiga kelib tushushishi bo'yicha ma'lumotlarni ko'rib chiqish lozim deb bilaman. Ushbu ma'lumotlarni quyidagi jadval asosida O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti daromadlar ko'rsatkichlari keltirilgan, mazkur ko'rsatkichlarning tarkibida davlat byudjetining

asosiy daromad manbalari negizida shakllantirilgan bo'lib, byudjet daromadlarining 5 yillik solishtirma ma'lumotlarini 1-jadvalda kuzatishimiz mumkin.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining ko'rsatkichlari to'g'risida

MA'LUMOT

(mlrd.so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2020 yil		2021 yil		2022 yil		2023 yil		2024 yil	
		summa	foiz	summa	foiz	summa	foiz	summa	foiz	summa	foiz
I. Daromadlar jami		132 938,0	100%	164 799,4	100%	201 863,7	100%	231 721,3	100%	274 423,0	100%
1.	Bevosita soliqlar	45 206,9	34%	58 930,4	36%	64 447,1	32%	73 103,6	32%	90 833,0	33%
1,1	Foyda solig'i	28 712,2	64%	38 363,3	65%	37 649,9	58%	40 778,9	56%	52 620,0	58%
1,2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	15 140,8	33%	18 917,7	32%	24 284,5	38%	29 917,4	41%	35 384,0	39%
1,3	Aylanmadan olinadigan soliq	1 353,9	3%	1 649,4	3%	2 512,7	4%	2 407,3	3%	2 829,0	3%
2.	Bilvosita soliqlar	46 428,4	35%	56 290,4	34%	71 390,2	35%	83 325,8	36%	88 341,0	32%
2,1	Qo'shilgan qiymat solig'i	31 177,4	67%	38 439,0	68%	52 189,4	73%	57 885,3	69%	59 280,0	67%
2,2	Aksiz solig'i	11 697,3	25%	13 086,5	23%	13 455,0	19%	15 834,4	19%	19 060,0	22%
2,3	Bojxona boji	3 553,7	8%	4 764,9	8%	5 745,7	8%	9 606,1	12%	10 001,0	11%
3.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	21 257,0	16%	23 036,4	14%	23 912,8	12%	28 079,5	12%	36 363,0	13%
3,1	Mol-mulk solig'i	1 974,3	9%	2 457,3	11%	4 015,4	17%	5 097,7	18%	6 805,0	19%
3,2	Yer solig'i	2 386,7	11%	4 082,8	18%	5 305,9	22%	6 890,1	25%	8 216,0	23%
3,3	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	16 417,1	77%	15 811,9	69%	13 887,4	58%	15 300,3	54%	20 170,0	55%
3,4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	478,8	2%	684,4	3%	704,1	3%	791,4	3%	1 173,0	3%
4	Boshqa daromadlar	20 045,8	15%	26 542,2	16%	42 113,7	21%	47 212,5	20%	58 886,0	21%

Jadvaldagi ma'lumotlar, Iqtisodiyot va moliya vazirligining internetdagi rasmiy sahifasidan olingan bo'lib, muallif tomonidan tegishli tartibda tahlil qilingan.

Jadvalda keltirilgan raqamlardan quyidagicha xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu jadval asosida shakllantirilgan davlat byudjeti daromadlari ko'rsatkichlari bo'yicha 2020 va 2021 yillarda bevosita soliqlar yoki to'g'ri soliqlardan tushgan mablag'lar jami daromadlarga nisbatan 34-36 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022, 2023 va 2024 yillarda ushbu ko'rsatkichlar 32-33 foizni tashkil etgan. Bunga sabab, respublika hududlarida yangi tashkil etilayotgan ishlab chiqarish korxonalariga davlat tomonidan soliq imtiyozlarini qo'llanilishi va boshqa tartibda davlat ko'maklari berilishi natijasida soliq yuki kamaytirilgan. Huddi shuningdek, resur to'lovlari va mol-mulk solig'i bo'yicha ham 2020-2021 yillarda 16-14 foiz tushum bo'lgan bo'lsa,

ushbu ko'rsatkichlardan 2022, 2023 va 2024 yillarda 12-13 foiz tushum bo'lgan. Bu ham mamlakatda ishlab chiqarish korxonalarini yanada rivojlantirish maqsadida va ularning sonini ko'paytirish siyosatini amalga oshirish uchun keyingi yillarda tashkilotlar tomonidan to'lanadigan resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i bo'yicha foiz miqdorlari kamaytirilgan. Ushbu soliq va yig'implarning yuklarini jadvalda keltirilgan bilvosita soliqlar va boshqa daromadlar tarkibidagi tushumlarning zimmasiga yuklatilgan. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadigan davlat soliqlari yuklarini istemol soliqlari va boshqa davlat daromadlari yuklariga qo'shilganligini ko'rishimiz mumkin. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bilvosita soliqlar orqali davlat daromadlarini bajarilishi o'rtacha 35-36 foizni tashkil etmoqda. Mazkur soliqdan tushadigan daromadlarni o'rtacha 70 yoki 80 foizi mahalliy byudjetlar daromadlariga tushushi orqali mahalliy byudjetlarning xarajatlarini bajarilishida yuzaga keladigan taqchilliklarning oldi olinishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasi hududlarda yaratilayotgan milliy daromad, ya'ni ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, daromadlarning doimiy va bir maromda tushishi bilan bevosita bog'liqdir. Albatta bu jarayonlarni amalga oshirishda hududlardagi mahalliy davlat hokimiyati organlarining xizmatlari juda ham beqiyosdir. Bunda mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning ichki rezervlarini oshirishda hududlarda ishlab chiqarishning rivojlanishida hamda joylardagi iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida mahalliy davlat hokimiyati organlarining ahamiyati kattadir. Chunki, joylardagi mahalliy boshqaruv organlari barcha mahalliy byudjetga tushadigan daromadlar bazasini juda yaxshi bilishlari oqibatida mahalliy byudjet daromadlarini ortishiga katta hissa qo'shishmoqda. Quyida keltirilgan 2-jadvalda hududlardagi mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumot jadvalidan asosan xarajatlarni daromadlardan ortganligini va mahalliy byudjet taqchilligini Respublika byudjetidan ajratilgan tartibga soluvchi byudjet transfetrlari va o'zaro hisob-kitoblar asosida bartaraf etilganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlari to'g'risida

MA'LUMOT

(mlrd.so'm)


№	Hududlar nomi	2020 yil			2021 yil			2022 yil			2023 yil			2024 yil		
		yillik			yillik			yillik			yillik			yillik		
		Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert
	Jami	27 703,0	47 190,8	19 487,8	35 172,9	65 534,3	30 361,4	47 390,4	88 787,5	41 397,1	55 728,9	101740,9	46 011,7	57 024,8	86 811,8	16 836,8
1	Qoraqalpog'iston	2 743,9	3 542,0	798,1	1 869,3	4 376,1	2 506,9	2 499,5	5 939,9	3 440,3	2 843,7	6 806,0	3 962,3	2 933,1	5 637,5	2 077,9
2	Andijon	2 105,9	3 708,0	1 602,1	2 418,6	4 911,1	2 492,5	3 246,5	6 869,8	3 623,3	3 931,2	8 137,3	4 206,0	3 782,0	6 757,4	1 913,8
3	Buxoro	1 782,9	3 103,5	1 320,6	2 374,1	4 071,0	1 696,8	3 425,3	5 350,7	1 925,4	3 876,6	5 968,4	2 091,9	3 898,8	5 348,1	361,1
4	Jizzax	1 058,0	2 057,7	999,7	1 460,4	2 927,2	1 466,7	1 822,8	3 928,5	2 105,7	2 227,9	4 645,7	2 417,8	2 151,1	3 847,2	888,6
5	Qashqadaryo	2 468,8	4 603,2	2 134,4	2 722,1	6 095,4	3 373,3	3 920,0	8 812,2	4 892,3	4 607,5	10 519,3	5 911,8	4 572,5	6 585,8	927,0
6	Navoiy	1 540,9	1 818,2	277,3	1 947,8	2 629,4	681,6	2 432,9	3 469,1	1 036,1	3 039,4	4 046,1	1 006,7	2 690,3	3 802,6	182,5
7	Namangan	1 763,0	3 776,9	2 013,9	2 297,1	4 955,0	2 658,0	3 265,4	6 927,5	3 662,2	3 516,8	8 113,6	4 596,7	3 391,4	5 983,4	1 984,0
8	Samarqand	2 385,6	3 811,6	1 426,0	3 154,8	5 681,6	2 526,8	4 197,7	7 889,6	3 691,9	5 100,1	8 778,5	3 678,4	5 312,6	7 678,6	1 588,5
9	Surxondaryo	1 605,7	3 246,6	1 640,8	1 993,3	4 782,1	2 788,8	2 670,6	6 527,9	3 857,3	3 043,0	7 944,0	4 901,0	2 989,1	5 541,5	1 832,8
10	Sirdaryo	716,5	2 375,6	1 659,1	881,7	2 138,9	1 257,2	1 147,8	2 671,1	1 523,3	1 390,3	3 147,7	1 757,3	1 528,1	2 752,1	901,8
11	Toshkent v.	2 395,5	3 386,8	991,3	3 734,1	4 879,3	1 145,2	4 526,0	6 838,2	2 312,2	6 024,1	7 770,3	1 746,1	5 448,4	7 041,6	517,4
12	Farg'ona	2 677,3	4 132,1	1 454,8	3 665,1	5 865,9	2 200,8	4 778,5	8 749,0	3 970,5	5 169,3	9 889,9	4 720,6	5 273,6	8 131,9	1 943,7
13	Xorazm	1 302,7	2 278,9	976,2	1 743,1	3 344,6	1 601,5	2 384,2	4 485,5	2 101,3	2 740,7	5 610,0	2 869,3	2 876,9	4 691,1	1 203,8
14	Toshkent sh.	3 156,3	5 349,7	2 193,5	4 911,4	8 876,7	3 965,3	7 073,2	10 328,5	3 255,3	8 218,3	10 364,1	2 145,8	10 176,9	13 013,0	513,9

Jadvaldagi ma'lumotlar, Iqtisodiyot va moliya vazirligining internetdagi rasmiy sahifasidan olingan bo'lib, muallif tomonidan tegishli tartibda tahlil qilingan.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, ma'lumotlarni 5 yilligini tahlil qilinganda, yildan-yilga xarajatlarni ortishi oqibatida Respublika byudjetidan ajratilgan tartibga soluvchi byudjet transfertlari orqali taqchillikni bartaraf etish ham ortib borgan. Jumladan, 2020 yilda 19487.8 mlrd.so'm byudjet transferti jalb qilingan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 30361.4 mlrd.so'mni, 2022 yilda 41397.1 mlrd.so'mni, 2023 yilda 46011.7 mlrd.so'mni tashkil etgan. Ushbu yillarda mahalliy byudjet daromadlarini asosini byudjet transfertlari bilan to'ldirish amalga oshirilgan. Bunga sabab, davlatning ichki iqtisodiy siyosatini isloxlari tufayli joylarda ishlab chiqarish korxonalarini ko'paytirish maqsadida tadbirkorlarga tegishli soliq imtiyozlari berilishi oqibatida byudjetga soliqlardan tushumlar biroz kamaygan. 2024 yilda esa Respublika byudjetidan ajratilgan tartibga soluvchi byudjet transfertlaridan foydalanish jarayonlari 2020 yilga nisbatan ham ancha kam bo'lgan yoki 2024 yilda

byudjet transfertlari hisobidan 16836.8 mlrd.so‘m foydalanishga erishilgan. Bu esa mahalliy byudjet daromadlarini oldingi yillarga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ortganligidan dalolat beradi. Buning asosiy sabablaridan bittasi mamlakatning barcha ma‘muriy hududlarida kichik biznes va o‘rta biznesni ko‘paytirish hamda ularga davlat tomonidan tegishli soliq imtiyozlarini qo‘llanilishi oqibatida mahalliy byudjetlar daromadlarini oldingi besh yilga nisbatan ortganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, 2020 yilda mahalliy byudjet daromadlari jami 27703.0 mlrd.so‘m bo‘lgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2024 yilda 57024.8 mlrd.so‘mni tashkil etgan yoki 2020 yilga nisbatan mahalliy byudjet daromadlari 206 foizga ortganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlardan foydalangan holda O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti daromadlari tarkibida mamlakatning ma‘muriy hududlarining mahalliy byudjetlari daromadlari ulushini quyidagi diagrammada ko‘rinishimiz mumkin.



1-chizma

Diagrammada keltirilgan raqamli ma'lumotlar muallif tomonidan solishtirma jadvallar asosida tahlil qilinib shakllantirilgan.

Mazkur diagrammadan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti daromadlari tarkibida mahalliy byudjetlarning ulushi anchagina pastligi bu achinarli holatdir. Mahalliy byudjetlarining daromadlari qachon mustaxkam va serdaromad bo'lsagina shunda davlat byudjeti daromadlarini ortishi ham kuzatiladi. 2020 yilda mahalliy byudjet ulushi 21 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024 yilda ham 21 foizni tashkil etmoqda. Bunday o'zgarishsiz bo'lgan ko'rsatkich byudjet daromadlarining ortishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa mahalliy byudjet xarajatlarini ta'minlashda muammo va qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Diagrammada ko'rinib turganidek 5 yil davomida daromadlarni ortishida tegishli o'zgarishlar bo'lishiga qaramasdan yoki davlat byudjeti daromadlari 2024 yilda 274423.0 mlrd.so'm bo'lgan bo'lsa, shu ko'rsatkichga nisbatan mahalliy byudjetlar daromadi jami 57024.8 mlrd.so'mni tashkil etgan. Ushbu daromadlarni ortishini foiz ko'rsatkichi bilan solishtirilganda mahalliy byudjetlarning tegishli daromadlari davlat byudjeti daromadlari negizda o'zgarishsiz qolmoqda. Bu esa o'z navbatida, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllanishida davlat byudjeti daromadlari oldida boqimanda kayfiyatida bo'lishini taqozo etmoqda.

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda davlat byudjeti ijrosini amalga oshirishda mahalliy byudjetlarni yuqori byudjetga bog'lovchi yoki aksincha yuqori byudjet bilan quyi byudjetlar o'rtasida aloqa vositasini amalga oshiruvchi tizim bu byudjetlararo munosabatlar tizimidir. Ushbu tizimni tartibga solish amaliyotida ayrim mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy qismini shakllanishini ta'minlamoqda. Mahalliy byudjet daromadlarining bunday miqdorda bo'lishi mahalliy hokimiyat organlarining o'z mas'uliyatlarini yuqori darajada his qilmaslikka olib keladi. Bunday holat davlat iqtisodiyotini erkinlashtirish siyosatiga to'g'ri kye lamaydi. Bundan tashqari, mahalliy davlat hokimiyati organlari respublikamizdagi donor mintaqalar va respublika

byudjeti orqali qo'llab-quvvatlanishini bilganliklari uchun o'zlarining daromad bazalarini va iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishga unchalik harakat qilmaydilar. Ayrim hududlar esa respublika byudjetidan ko'proq mablag' olish maqsadida birinchi darajali to'lovlar, ijtimoiy nafaqalar va turli ijtimoiy to'lovlar hajmini sun'iy ravishda oshirishga harakat qiladilar.

Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasi bo'lgan mahalliy soliqlar va mahalliy yig'implarni hamda moliyaviy oqimlarni tahlil qilish yoki o'rganish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida quyidagicha xulosa fikrlar bildirish mumkin;

- ryespublikamizda hozirgi kunda shakllangan mahalliy soliqlar mahalliy byudjet daromadlari bazasida mustaxkamlangan bo'lsa, lekin ushbu soliqlarni to'liq mahalliy byudjet daromadlariga tushishni ta'minlash lozim,

- mahalliy soliqlar va yig'implarning tarkibini ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda soliqqa tortish manbasi, soliq to'lovchilar tarkibini tahlil qilgan holda birlashtirish,

- umumdavlat soliqlardan tashqari tartibga solinadigan soliqlarni ajratmalar foizini to'lagigicha mahalliy byudjet daromadlari bazasiga o'tkazish kerak, jumladan; alkogol ichimliklarga qo'llaniladigan aksiz solig'i,

Maqolada keltirilgan mavzu esa bugungi kunning dolzarb mavzulardan biri bo'lib, mahalliy byudjetlar xarajatlarini mablag' bilan ta'minlash yuzasidan hududlardagi mahalliy davlat hokimiyati organlarining iqtisodiy munosabatlardagi mustaqilligini yanada oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga mahalliy byudjetni shakllantirishda mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini yanada oshirish va byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tadbirkorlikni rivojlantirishga, kichik va o'rta biznes sohasida manfaatdorligini yanada oshirishdan dalolat beradi. Bundan tashqari, hududlarda investision salohiyatlarni oshirish yuzasidan taraqqiy etgan xorij investorlarini jalb qilish orqali hududlarda investision muhitni shakllantirish va buning natijasida zamonaviy texnologiyalar asosida shakllantirilgan ishlab chiqarish korxonalarini

hamda sanoat korxonalarni ko'paytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa mahalliy byudjet daromadlarini ortishiga katta ta'sir etadi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risda"gi O'RQ-742-son, 30.12.2021 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risda"gi O'RQ-813-son, 30.12.2022 yil.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risda"gi O'RQ-886-son, 25.12.2023 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risda"gi qonun ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida PQ-422-sonli qarori, 29.12.2023 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risda"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risda"gi PQ-4555 sonli Qarori.
7. Mamanazarov A. B. Mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish masalalari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, BMA, 2002. - 22 b.
8. Qobulov H. A. Hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish yo'nalishlari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. - Toshkent: BMA, 2006. - 21 b.

9. Burxanov A, Qurbonov X. “Hududlarda mahalliy byudjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo‘llari (Qashqadaryo viloyati misolida)”. “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №1, yanvar-fevral, 2018 yil.
10. Xaydarov N. X. “Mahalliy byudjetlar: muammo va innovasion yechimlar”. “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2020 yil, 2-son.
11. Tumanskaya Yuliya Vyacheslavovna. “Formirovaniye doxodov mestnykh byudjetov v usloviyax reformirovaniya mestnogo samoupravleniya”. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. Ivanovo 2004. 20-str.
12. Naydenova T. A, Shvesova I.N. “Osenka formirovaniya doxodnoy bazy mestnogo byudjeta (na materialax munisipalnogo obrazovaniya gorodskogo okruga «Syktyvkar»)”. “Finansy i kredit”. 2014 g. 20-30 str.
13. Gorina, E. Financial Sustainability of Local Governments: Effects of Government Structure, Revenue Diversity, and Local Economic Base (Doctoral dissertation). Tempe: Arizona State University. www.scopus.com.
14. Maribjonov. B. I., “Features of budget transfers in the formation of local budget funds”., INTERNATIONAL JOURNAL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE. ISSN: 2692-5206, Impact Factor: 12,23., American Academic publishers, volume 05, issue 03,2025., <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai>
15. Maribjonov. B. I., “Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil o‘tkazishning o‘ziga xos hususiyatlari”. 2024.
16. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari.
17. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Ochiq byudjet” portali. - <https://openbudget.uz>